



## JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASH VA ULARNING OLDINI OLIHDA ODAM QO'L BARMOQ IZLARINING AHAMIYATI

**Jalgasov Amir Amanboy o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi*

*Kursantining Daktiloskopiya bo'yicha yozgan maqolasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali siz odam qo'l barmoq izlarining jinoyatchilikka qarshi kurash va ularning oldini olishdagi ahamiyati va mohiyati, hamda barmoq izlarini olish va tadqiq etish bilan shug'ullanuvchi maxsus soha haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

**Аннотация:** Из этой статьи вы узнаете о важности и значении отпечатков пальцев человека в предотвращении преступности и борьбе с ней, а также о специализированной области снятия отпечатков пальцев и исследований.

**Kalit so'zlar:** Jinoyatchilik, barmoq izlari, daktiloskopiya, papilyar chiziq, endoskopiya, yuzaki izlar, hajmli izlar.

**Ключевые слова:** Криминология, отпечатки пальцев, дактилоскопия, папиллярные линии, эндоскопия, поверхностные следы, объемные следы.

Mustaqillik yillarida respublikamizda jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib, mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlashda ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishildi.

Shu bilan birga, jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlarining faoliyati shakli va uslublarini butunlay yangicha yondashuvda tashkil etilishi tufayli samarali mexanizm yaratildi.

Jinoyat sodir etishda zamonaviy texnologiyalar va usullarni qo'llash butun dunyoda tobora ommalashib borayotganligini inobatga olib, shaxsning ijtimoiy xavfli qilmish uchun aybliligini sudda ilmiy-texnik jihatdan asoslangan ishonchli dalillar bilan isbotlash jarayonlarini yanada takomillashtirish talab etilmoqda.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha o'tkazilayotgan tezkor-qidiruv tadbirlari, tergov va sud harakatlarida dalillarni to'plashda zamonaviy fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini, xususan kriminalistik ilmiy usul va vositalarni qo'llash amaliyotini yangi bosqichga olib chiqish lozim.

Shuningdek, jinoyatchi shaxs tomonidan voqea sodir bo'lgan joyda qoladigan qo'l barmoq izlarini topish, olish va qayd etish bilan bog'liq muammolar Ichki ishlar organlari xodimlarining kundalik ish faoliyatida uchrab turadi.

Ana shunday muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash va qisqa muddatlarda fosh etish, ashyoviy dalillarning kriminalistik tadqiqotlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika



bo'linmalarining bu boradagi imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Ekspert kriminalistika faoliyatida tahsil oluvchi kursant va tinglovchilariga amaliyotda uchraydigan muammolarni hal qilish maqsadida kriminalistika darsligi o'qitiladi.

Kriminalistika darsligida aynan shu soha bilan shug'ullanuvchi daktiloskopiya tarmog'i mavjud. Daktiloskopiya (yun. daktylos -barmoq, skopeo — qarayman) — qo'l barmoqlari uchidagi teri izlariga qarab, shaxsni aniqlash usuli. Bu izlar ariqcha va aylana shaklidagi nozik chiziqlardan iborat bo'lib, yoysimon, sirtmoqli va gajakdor naqshlar hosil qiladi.

Ular har bir shaxsda o'ziga xos, boshqalarda qaytarilmaydigan, umrbod o'zgarmaydigan, zararlansa qayta tiklanadigan xususiyatlarga ega. Daktiloskopiya bir yarim asrdan buyon deyarli barcha mamlakatlarda jinoyatchilarni ro'yxatga olish va qidirib topish vositasi sifatida foydalaniladi.

Odam qo'l barmoq izlaridagi papilyar chiziqlar daktiloskopiyaning endoskopiya tarmog'ida o'rganiladi.

Endoskopiya (ingliz tilidan, chekka, chegara va yunoncha skopeo - tekshirish, o'rganish) - barmoq izlari bo'limi bo'lib, faqat kichik o'lchamli izlar tadqiqoti o'tkaziladi. Jinoyat sodir etgan yoki uni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarning hodisa sodir bo'lgan joydan olingan qo'l barmoq izlari orqali shaxsini aynanlashtirish vazifalari avtomotlashtirilgan daktiloskopik taqqoslash tizimi orqali amalga oshiriladi.

Tizimga matnli, foto va videoyozuv tasvirlaridagi va boshqa ma'lumotlarni tashuvchi vositalardagi ma'lumotlar kiritiladi hamda fosh etilmagan jinoyatlar yuzasidan hodisa joylaridan olingan qo'l izlari kartatekasi va shaxslarning daktokartalari shakllantiradi, qo'l izlari va daktokartalar ma'lumotlari bo'yicha qidiruvni tashkil etish, shaxsini yoki jinoyatga aloqadorligini aniqlash maqsadida ADIT ma'lumotlar tizimi bo'yicha nomzodlar ro'yxatini ko'rib chiqish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Ba'zi hollarda ADIT ma'lumotlar tizimi bilan ishlayotganimizda quyidagi kamchiliklar ko'zga tashlanadi:

- qidirilayotgan nomzodlar ro'yxatini topishda vaqtning ko'p sarflanishi;
- topilgan shaxs yuzining xira ko'rinishi;
- o'zida biografik ma'lumotlarning to'liq aks etmasligi.

Ana shunday kamchilik va muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot kommunikatsiya qurilmalarini joriy etish va ularni amaliyotga tadbiiq etish maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kriminalistika darslik T.B. Mamatqulov, I.Astanov va boshqalar. -T...: O'zbekiston respublikasi IIV Akademiyasi, 2021.-106-114b



2. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi ekspert-kriminalistika kafedrası "Daktiloskopik ekspertiza" nomli kitobi.

3. <https://www.lex.uz/> veb sayti.

4. "Jinoyat Protsessual Kodeksi" darsliklar// R.R.Shafigulin,T.B.Mamatqulov, SH.X.Xasanov, L.Y. Yugay, A.D.Xusanov.